

## TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH

*G'ofurova Ma'mura*

*Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** maqolada talaba mustaqil ta'limining o'quv yuklamadagi o'rni, ahamiyati, mustaqil ish topshiriqlarini bajarish talablari, mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy maqsad va vazifalari, shakli, turlari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ish, mustaqil ish talablari, maqsad va vazifa, mustaqil ta'lim shakli, turi.

Odatda, talabaning mustaqil ta'lim yuklamasi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Talabaning mustaqil ta'limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida (o'quv yuklamasida ajratilgan auditoriya soatini inobatga olmagan holda) bevosita o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish yoki talabaning fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil o'qib-o'rganishi tarzida amalga oshiradigan o'quv ishlari majmuini anglatadi.

Mustaqil ish topshiriqlari va uni bajarish muddatlari elektron platformada qat'iy belgilanadi. Uzrli sabablarsiz mustaqil ishni bajarish muddatini o'tkazib yuborgan talabaning o'quv faoliyati natijalari tekshirilmaydi va baholanmaydi. Uzrli sabablar esa, dekanat tomonidan o'rganib chiqilishi, dekan ruxsati bilan inobatga olinishi hamda topshiriq bajarilishi uchun yakuniy nazorat o'tkazilishiga qadar qayta topshirish muddati belgilanishi mumkin.

Albatta, talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda akademik va etik talablarga rioya etishi, ya'ni ko'chirmachilikka (plagiatga) yo'l qo'ymaslik, professor-o'qituvchilar, talabalar bilan tolerant munosabatda bo'lishi, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashi, mas'uliyatli bo'lishi talab etiladi.

Fan xususiyatidan, masalan, ona tili va adabiyoti fani (moduli) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Ona tili va adabiyoti fanidan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishdan asosiy **maqsad** fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalarning mustaqil ta'limini to'g'ri tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qiladi:

- talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

- talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

- ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

- ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Talabalarning mustaqil ta'limi auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish, auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish, fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish shaklida tashkil etsa bo'ladi.

Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

- seminar-konferensiyalarga tayyorgarlik ko'rish;

- ko'p so'raladigan savollar orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;

- fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

- o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan (modul)ga oid bilimlarini mustahkamlash;

- nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish;

- sinovga tayyorgarlik ko'rish;

- imtihonga tayyorgarlik ko'rish.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse) da yozma bayon qilish;

- ma'ruzalar tayyorlash;

- kurs ishi yozish;

- konspekt yozish;

- glossariy tuzish;

- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;

- keys-topshiriqlarini bajarish;

- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash.

Demak, mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat bo'lib, uni to'g'ri tashkil etish fanni puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda gi 824-son Qarori.
2. “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi 311-son buyrug'i.
3. Sobirova M. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi. Darslik. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – Namangan: Arjumand media, 2023. – B.512.
4. Sobirova M. Ona tilini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni . “Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar” mavzusida xorijiy olimlar ishtirokidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 19-21-dekabr.
5. Sobirova M. Filologik ta'limda ko'rgazmali vositalarning antroposentrik yondashuvdagi o'rni. “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-qism. – Farg'ona: FarDU, 2022. – B.128-131. The actual problems of filology materials of the international scientific conference. – Scientific publication. – Ferghana: FSU, 2022.
6. Sobirova M. Raqamli ta'lim vositalari – ona tili ta'limi jarayoniga insonparvarlikni singdirishda muhim vosita. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2022.№ 5. – B. 624-629.
7. Sobirova M. Yangi O'zbekistonda integratsiyalashgan texnologiya asosida insonparvarlik tarbiyasini berish. “Xalq ta'limi” jurnali. 2021. № 6. Maxsus son. – B. 73-79.

8. Sobirova M. Modulli ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. O'zb.Res.Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-y.25-dekabrdagi 538-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan. – Namangan: Arjumand media, 2021. –B.200.

9.Абдулвохидов Э. ПЕРЕПЛЕТЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПИСАТЕЛЕЙ-ФИЛОСОФОВ //Conferencea. – 2023. – С. 105-108.

10.Абдулвохидов Э., Акрамхонова М. ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1233-1239.

11.Абдулвохидов Э. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ (на примере педагогической концепции А. Авлони) //Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarida universal ta'lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023. – С. 206-207.

12.Egamberdiyeva S. BOLALAR FOLKLORIDA BESHIK QO'SHIQLARI POETIKASI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 61-67.  
<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/4233/4052>

13.Mamajonovna S. E. O'ZBEK XALQ OG'ZALI IJODIDA ONALIK FOLKLORI POETIKASI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 67-73.

<https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2654/2375>

14.Mamajonovna E. S. O 'ZBEK VA TURK ALLALARIDA OTA OBRAZINING QIYOSIY TALQINLARI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 561-564.

<https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1851/1689>

15.Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'Li QOZOQ VA O'ZBEK TILIDAGI MODAL SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qozoq-va-o-zbek-tilidagi-modal-so-zlar-chog-ishtirmasi> (дата обращения: 01.02.2024).

16.Tojiddinova N. H. LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF THE PUZZLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1099-1101. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1922/1484>

17.Tillayeva R. O 'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRIHSDA TADQIQOT ISHI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI //O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI.

C.439. [https://tsuull.uz/sites/default/files/02\\_06\\_22\\_toplam\\_til\\_va\\_adabiyot\\_ilmii\\_va\\_amaliy\\_izlanishlar\\_volidagi\\_0.pdf#page=439](https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmii_va_amaliy_izlanishlar_volidagi_0.pdf#page=439)

18. **Убайдуллаев Ш.Н.** Чет тил дарсларида маданиятлараро мулоқотга ўргатишнинг асосий хусусиятлари. Best Practices in Distance Education in Learning Foreign Languages. International Scientific Conference. –Т., UzSPIC. 2009. – P. 277-279.

19. **Убайдуллаев Ш.Н.** Символические значение цвета в фразеологических единицах на материале английского, немецкого, русского и узбекского языков. International Scientific Journal. Philadelphia, USA. 2019. №12. –P. 42-44. (ISSN:2409-0085)

20. **Dehqanova Guljahon Ahmadjonovna.** (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344>

21. **Dehqanova G. A., Polvanova M. F.** NATIONAL-CULTURAL SPECIFICITY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 159-164. <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/545/544>

22. **Bobajonova Mavjuda.** International Journal of Formal Education. ISSN:2720-6870 . Development of Lingvokultural Inofons Competense on Russian Lessons. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>

23. **Пардабоева Д. Р.** Методы обучения на уроках русского языка //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 957-961.

24. **Пардабоева Д. Р.** Модели личностно-ориентированного подхода в обучении русскому языку //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 952-956.

25. **Пардабоева Д. Р.** СПЕЦИФИКА УЧЕБНОЙ РАБОТЫ НАД ЯЗЫКОМ ПРОИЗВЕДЕНИЙ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 96-101.

26. **Олимова Моҳидил.** СВОЕОБРАЗНЫЕ ЧЕРТЫ ИВАНА АЛЕКСЕЕВИЧА БУНИНА .International journal of advanced research in education, technology and management ISSN:2349-0012. [vol. 2.2, 2- hind.pdf](http://www.ijareonline.in/vol222-hind.pdf)

27. **R.T. Tillayeva. M.M.Q. Mo'minova.** O'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi "Science and Education" Scientific Journal / [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)  
November 2023 / Volume 4 Issue 11

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAAAAJ&citation\\_for\\_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5NHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAAAAJ&citation_for_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5NHmVD_uO8C)

28.Ибрагимова Н. Т. АКТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ РУССКОМУ ЯЗЫКУ У УЧАЩИХСЯ УРОВНЯ В1 СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 166-170. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4168/5041>

29.Комилjon o'g O. Y. et al. CHARACTERISTICS OF LITERARY TRENDS OF AMERICAN LITERATURE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1202-1208.

<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/9347/6053>